# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
## 2023- YIL YANVAR-NOYABR
## (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz

## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*2023- yil yanvar-noyabr oylarida*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 18 819,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.

*yanvar-noyabr mlrd. so'mda*




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,7 % ni tashkil etdi.

*yanvar-noyabr FHI, % da*




*yanvar-noyabr ulushi, % da*



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, ishlab chiqaradigan sanoatining 107,7 % ga , suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish sanoatini 130,6 % ga oʻsishi hisoblanadi.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 86,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.



## 2023- yil yanvar-noyabr oylarida







2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 381,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,7 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2022- yilning yanvar-noyabr oylarida – 1,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,7 % (8,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,3 % (12,7 %) va quyi texnologiyalisi – 73,5 % (77,6 %) ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 37,7 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,6 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,5 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 133,5 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,1 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 148,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,8 % (2022-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,6 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari





















2023-yilning yanvar-noyabr oylari davomida jami sanoatda yirik korxonalar tomonidan 39,7 ming tonna bug‘doy uni ishlab chiqarilgan bo‘lib, (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 61,7 % ga kamaygan ), 25,9 ming tonna paxta tolasi (10,4 % kamaygan), 29,9 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (35,1 % ga kamaygan) hamda 44,1 ming tonna paxta chigiti (9,6 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-noyabr | 2023- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Omuxta yem, ming tonna | 46,1 | 29,9 | -16,2 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna | 103,7 | 39,7 | -64,0 |
| Paxta tolasi, ming tonna | 28,9 | 25,9 | - 3,0 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t | 10,7 | 7,1 | - 3,6 |

## Metallurgiya sanoati

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 56,9 % bo‘lgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 0,6 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 16,1 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 104,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 572,2 mlrd.so‘mni yoki jami sanoat hajmining 3,6 % ni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 992,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 717,2 mlrd so‘mni, joriy 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 813,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 96,7 mlrd. so'mga ortgan.



## 2022- yil yanvar-noyabr oylarida

## Ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 493,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 683,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 190,2 mlrd. so‘mga ko‘paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida jami sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 106,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 103,7 % ga teng bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 756,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, ja'mi ishlab chiqariladigan sanoat tarkibida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 9,4 % ni, ya'ni jami 1 496,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 11,3 % ni tashkil etib, 2 126,8 mlrd. so‘mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o‘tgan 2022-yilning mos davriga nisbatan 630,5 mlrd. so‘mga oshgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 522,5 mlrd. so‘mni, jami sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyati bo‘yicha 572,0 mlrd. so‘mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, tashkil etdi.

2022-yil 245,2 %

2023-yil 103,3 %

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 11,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 2,8 mlrd. so‘mga ko‘payib, 14,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yil 91,0 %

2023-yil 101,2 %

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar jami sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, yani 254,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o‘tgan yilga nisbatan 267,6 mlrd. so‘mga ko‘paygan va 522,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yil 119,0 %

2023-yil 134,5 %

# Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 152,4 mlrd. so‘mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 16,7 % ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 353,5 mlrd so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.

| | yanvar-noyabr mlrd. so‘m | yanvar-noyabr FHI, % da |
|---|---|---|
| 2022- yil | 2 798,9 | 120,0 % |
| 2023- yil | 3 152,4 | 104,7 % |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-noyabr | 2023- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 6 004,7 | 6 325,9 | 321,2 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 58,8 | 50,6 | - 8,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 198,9 mlrd so‘mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 %ini) tashkil etdi.




## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-noyabr | 2023- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta 'minoti bo' yicha xizmatlar - mlrd so ' m | 87,3 | 116,5 | 29,2 |
| Shahar xo‘jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m | 20,1 | 29,8 | 9,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo‘yicha xizmatlar 29,2 mlrd. so‘m yoki 33,4 % ga ko‘payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 9,7 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 990,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish 107,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 42,5 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



99,8 %

2023- yil
yanvar-noyabr



106,6 %

2022- yil
yanvar-noyabr



### Nooziq-ovqat mahsulotlar



Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib 46,0 % ni shuningdek, To‘raqo‘rg‘on tumani 11,5 %, Kosonsoy tumani 9,9 % ni, Chust tumani 7,6 % ni, Namangan tumani 4,9 %, Chortoq tumani 4,7 % va Uychi tumani 4,5 % ni tashkil etdi.

116,4 %

2023- yil
yanvar-noyabr

119,8 %

2022- yil
yanvar-noyabr



# 2023- yil yanvar-noyabr oylarida

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish.

### yanvar-noyabr mlrd.so‘m




### yanvar-noyabr o‘sish sur’ati




### Oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

yanvar-noyabr mlrd. so‘m







Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-noyabr o‘sish sur’ati




### Nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

yanvar-noyabr mlrd.so‘m







Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-noyabr o‘sish sur’ati



## 2023- yil yanvar-noyabr oylarida

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 473,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 18,5 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2023- yil yanvar-noyabr)**

